

V. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) bozor xizmatlarining hajmi


	<i>Miqdori, (mlrd.so‘m)</i>	<i>O‘shish sur‘ati, foiz</i>	<i>Jamiga nisbatan foizda</i>
Xizmatlar – jami	4649,7	120,3	100,0
<i>shu jumladan asosiy turlari bo‘yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	209,6	116,8	4,5
moliyaviy xizmatlar	1 195,0	128,3	25,7
transport xizmatlari	741,9	112,1	15,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	729,1	112,1	15,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	116,9	107,3	2,5
savdo xizmatlari	1 467,7	115,8	31,6
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	99,1	110,9	2,1
ta‘lim sohasidagi xizmatlar	198,4	155,3	4,3
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	88,7	146,6	1,9
ijara xizmatlari	100,9	120,7	2,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar	112,4	116,4	2,4
shaxsiy xizmatlar	127,1	111,6	2,7
me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	63,5	117,7	1,4
boshqa xizmatlar	128,5	126,4	2,8

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (31,6 %), moliyaviy xizmatlar (25,7 %), transport xizmatlari (15,9 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (4,5 %) ni tashkil etadi.


Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,4 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (1,9 %) hamda ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2,1 %) egalladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

(2021 yil yanvar-sentabr oylari uchun)



Xizmatlar tarkibida mulkchilik shakllari ulushlarining o‘zgarish dinamikasi, % da



Bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi savdo xizmatlari eng yuqori ulushni (31,6 %) tashkil etadi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

Savdo xizmatlari tarkibida chakana savdo (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) xizmatlari yuqori ulushni tashkil etadi – 81,5 foiz, ulgurji savdo xizmatlari 11,7 foiz va avtomobil ulgurji va chakana savdo xizmatlari 6,8 foizni tashkil etdi.




**Savdo xizmatlari hajmi va o'sish darajasining
hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2021 yil yanvar-sentabr)

	<i>Mrd.so'm</i>	<i>2020 yil yanvar-sentabrga nisbatan foiz</i>	<i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da</i>
Jizzax viloyati	1 467,7	115,8	100,0
<i>shahar:</i>			
Jizzax	322,3	108,5	22,0
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	41,0	113,6	2,8
Baxmal	137,0	123,8	9,3
G'allaorol	203,4	120,7	13,9
Sharof Rashidov	153,6	123,6	10,5
Do'stlik	75,7	121,2	5,1
Zomin	168,6	116,4	11,5
Zarbdor	76,4	113,2	5,2
Zafarobod	44,8	112,7	3,1
Mirzacho'l	51,7	114,0	3,5
Paxtakor	70,8	113,1	4,8
Forish	101,8	113,6	6,9
Yangiobod	20,6	111,8	1,4

Savdo xizmatlari hududlar bo'yicha tahlil qilinganida, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Baxmal (123,8 %), Sharof Rashidov (123,6 %), Do'stlik (121,2 %), G'allaorol (120,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari esa, Jizzax sh. (108,5%), Yangiobod (111,8 %) va Zafarobod (112,7 %) tumanlarida qayd etildi.


Savdo xizmatlarining umumiy hajmida hududlar ulushi, % da
(2021 yil yanvar-sentabr)



Savdo xizmatlari bo'yicha yuqori ulushga ega bo'lgan hududlar Jizzax shahri (22,0%), G'allaorol (13,9 %), Zomin (11,5 %), Sharof Rashidov (10,5%) va Baxmal (9,3 %) tumanlari hisoblanadi.

Uncha yuqori ulushga ega bo'lmagan hududlar esa, Yangiobod (1,4 %), Arnasoy (2,8%), Zafarobod (3,1 %) va Mirzacho'l (3,5 %) tumanlaridir.

Transport xizmatlarining tarkibi, % da
(2021 yil yanvar-sentabr)



Xizmatlar tarkibida savdo va moliya xizmatlaridan keyin transport xizmatlari ulushi (15,9 %) yuqoriligini ko'rish mumkin.

Shuningdek, qayd etish joizki yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar hajmining oshishining asosiy omillari – bu yangi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish, sanoat zonalarini tashkil etish va kengaytirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, turizm faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transportining ulushi 15,7 foiz bilan asosiy ustunlikka ega.


**Transport xizmatlari hajmi va o‘shish darajasining
hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2021 yil yanvar-sentabr)

	<i>Mlrd.so‘mda</i>	<i>2020 yil yanvar-sentabriga nisbatan foizda</i>	<i>jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, foiz</i>
Jizzax viloyati	741,9	112,1	100,0
<i>shahar:</i>			
Jizzax	117,6	117,8	15,8
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	6,0	66,5	0,8
Baxmal	72,2	106,8	9,7
G‘allaorol	63,0	108,6	8,5
Sharof Rashidov	246,3	116,0	33,2
Do‘stlik	26,8	113,8	3,6
Zomin	79,3	110,0	10,7
Zarbdor	36,7	108,0	4,9
Zafarobod	20,4	111,3	2,8
Mirzacho‘l	18,4	112,0	2,5
Paxtakor	26,4	110,7	3,6
Forish	22,4	107,9	3,0
Yangiobod	6,4	110,0	0,9

Tumanlar o‘rtasida transport xizmatlari bo‘yicha o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari Jizzax shahar (117,8 %), Sharof Rashidov (116,0 %), Do‘stlik (113,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Transport xizmatlari bo'yicha uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Arnasoy (66,5 %), Baxmal (106,8 %) hamda Forish (107,9 %) tumanlarida qayd etildi.

**Transport xizmatlarining umumiy hajmida
hududlarning ulushi, % da
(2021 yil yanvar-sentabr)**




Transport xizmatlari bo'yicha yuqori ulushga ega hududlar sifatida Sharof Rashidov (33,2 %), Jizzax shahri (15,8 %), Zomin (10,7 %), Baxmal (9,7 %) va G'allaorol (8,5 %) tumanlari qayd etildi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi zamonaviy insonning turmush tarziga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Yildan-yilga odamlar Internet va mobil telefonlardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lmoqda. Zamonaviy biznesni rivojlantirishda axborot va xizmatlardan real vaqtda masofaviy erkin foydalanish huquqi muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda Jizzax viloyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) davlat boshqaruvi tizimida, iqtisodiyotning tarmoqlarida, ijtimoiy soha va odamlarning kundalik hayotida joriy etishni izchil amalga oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

2021 yil yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyati bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 209,6mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2020 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishi 116,8 foizni tashkil etdi.


**Jizzax viloyatida aloqa va axborotlashtirish
xizmatlarining o'sish sur'ati, % da
(2021 yil yanvar-sentabr)**



Jizzax viloyatida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan yanvar-sentabr oyida o'sish sur'ati (116,8 %) qayd etildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (95,0 %) telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet, yo'ldosh aloqa xizmatlari va b.q.) hissasiga to'g'ri keladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, % da
(2021 yil yanvar-sentabr)**




Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va moliya-kredit muassasalari xizmatlari tez rivojlanayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Yangi texnologiyalarga va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayanib, bu faoliyat turlari hozirgi vaqtda rivojlanishning yangi bosqichi sifatida paydo bo'ldi va bugungi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, AKT sohasida innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.


Pul-kredit tizimini isloh qilish dasturida bank tizimini barqarorligini ta'minlash, xalqaro standartlarga muvofiq bank faoliyatini yanada takomillashtirish, qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, bank va sug'urta tashkilotlariga ko'rsatiladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi xizmat turlarini joriy etish, moliyaviy xizmatlar hajmini yanada kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Natijada, 2021 yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan moliyaviy xizmatlar hajmi 1 195,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi, o'sish sur'ati 128,3 foizni tashkil etdi.

**Jizzax viloyatida moliyaviy xizmatlarning
o'sish sur'ati dinamikasi, % da
(2021 yil yanvar-sentabr)**



Moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da
(2021 yil yanvar-sentabr)



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, shuningdek, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish (kredit berish va depozit hisob raqamlarni ochish bo'yicha elektron xizmatlar ko'rsatish) borasida amalga oshirilayotgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmining oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar ulushi (95,1 %) ustunlik qilmoqda. Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta xizmatlarining ulushi 3,6 foizni, yordamchi moliyaviy faoliyat 1,3 foizni tashkil etdi.

**Bozor xizmatlari hajmi va o'sish sur'atining
hududlar kesimidagi holati**

	<i>Jami</i>			<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd.so'm</i>	<i>2020 yil yanvar-sentabriga nisbatan foiz</i>	<i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2020 yil yanvar-sentabriga nisbatan % da</i>

Jizzax viloyati	4 649,7	120,3	100,0	3 268,3	117,7
------------------------	----------------	--------------	--------------	----------------	--------------

shahar:

Jizzax	1 872,6	122,2	40,3	10 277,5	119,8
--------	---------	-------	------	----------	-------

tumanlar:

Arnasoy	108,7	113,5	2,3	2 322,2	111,8
---------	-------	-------	-----	---------	-------

Baxmal	284,1	118,6	6,1	1 766,7	115,9
--------	-------	-------	-----	---------	-------

G'allaorol	379,7	120,6	8,2	2 151,5	118,0
------------	-------	-------	-----	---------	-------

Sharof Rashidov	594,9	119,9	12,8	2 602,4	116,7
-----------------	-------	-------	------	---------	-------

Do'stlik	175,4	120,8	3,8	2 618,8	118,6
----------	-------	-------	-----	---------	-------

Zomin	405,6	123,7	8,7	2 407,3	121,0
-------	-------	-------	-----	---------	-------

Zarbdor	182,6	116,8	3,9	2 052,3	113,8
---------	-------	-------	-----	---------	-------

Zafarobod	102,8	117,2	2,2	2 018,5	115,3
-----------	-------	-------	-----	---------	-------

Mirzacho'l	130,6	113,7	2,8	2 469,2	111,7
------------	-------	-------	-----	---------	-------


Paxtakor	169,2	116,8	3,6	2 218,1	114,5
----------	-------	-------	-----	---------	-------

Forish	190,4	115,8	4,1	2 016,6	114,0
--------	-------	-------	-----	---------	-------

Yangiobod	53,1	115,2	1,2	1 842,5	113,2
-----------	------	-------	-----	---------	-------

Xizmatlar sohasining rivojlanishida eng katta ulush Jizzax shahri (40,3 %), Sharof Rashidov (12,8 %) va Zomin (8,7 %) tumanlarda kuzatilmoqda.


**Jizzax viloyati bo'yicha xizmatlarning umumiy
hajmida hududlarning ulushi, % da**
(2021 yil yanvar-sentabr)



Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng kichik ulushlarni Yangiobod (1,2 %), Zafarobod (2,2 %) va Arnasoy (2,3 %) tumanlari qayd etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (10 277,5 ming so'm) bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,8 foizni tashkil etdi.


**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar
bo'yicha hajmi va o'sish sur'ati, % da**
(2021 yil yanvar-sentabr)



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Baxmal (1 766,7 ming so'm), Yangiobod (1 842,5 ming so'm) va Zafarobod (2 018,5 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi va o'sish sur'ati

(2021 yil yanvar-sentabr)




2020 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 107,3 foizni tashkil etdi, hajmi esa 23,2 mlrd. so'mga ko'ypaydi va 116,9 mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu turdagi xizmatlarning pasayishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi kamayganligi sezilarli ta'sir etganligini qayd etish lozim.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

(2021 yil yanvar-sentabr)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmining asosiy qismini oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi (89,6 %) tashkil etadi.


Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'atlari
(2021 yil yanvar-sentabr)



Qayd etish joizki, Zomin tumanida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,3 foizni tashkil qildi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar jami xizmatlar hajmining 4,3 foizini tashkil etib 198,4 mlrd. so'm, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 155,3 foizga o'sdi. Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda Do'stlik tumanida 200,5 foizga o'sib, bu sohada ytakchilik qilmoqda.

2021 yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha ta'lim sohasida ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'ati, % da



Xizmatlar ko'rsatishning mazkur sohasida nisbatan past o'sish sur'atlari Arnasoy (110,9 %), Mirzacho'l (111,4 %) va Forish (111,9 %) tumanlarida kuzatildi.

2021 yil yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar jami 88,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 146,6 foizni tashkil qilib, jami xizmatlardagi ulushi 1,9 foizni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda, eng yuqori o'sish sur'ati Zomin tumani (220,4 %), G'allaorol (141,4 %) tumanida va Jizzax sh. (129,5 %) kuzatildi.